VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

O‘ZBEKISTONNING KONSTITUTSIYALARI TARIXI

Panjiyev Jahongir Shavkat o‘g‘li

O’zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti

tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ne’matullayev Boburjon Qodirjon o‘g‘li

O’zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti antropologiya

va etnologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasining 2023 - yil 30 – aprelda umumxalq referendumi orqali qabul qilingan Konstitutsiyasi davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada beriladigan ma'lumotlar hozirga qadar qabul qilingan O'zbekistonning barcha Konstitutsiyalariga keng o'rinda ta’rif beradi. Bundan tashqari maqolada yurtimizning tarixiga nazar solgan holda Konstitutsiyamizning rivojlanishi, o'zgarishi va yangilanishlarini ko'rishingiz mumkin. Maqolamizning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiya taraqqiyotga asoslanganligini yoritib berish hisoblanadi;

Kalit so’zlar

Tarixga nazar , O’zbekistonning barcha Konstitutsiyalari, Yangi Konstitutsiya, referendum, xalq ovozi, taraqqiyot, “inson-jamiyat-davlat”, Bosh Qomusimiz, erkinlik kafolati huquqiy davlat ;

Abstract

The Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted by the national referendum on April 30, 2023 serves to make relations between the state and society more effective. The information given in the three articles gives a broad description of all the currently accepted Constitutions of Uzbekistan. In addition, looking at the history of our country, it is possible to show the creation, validity and renewal of our Constitution. The main goal of our article is to shed light on the effectiveness of the development of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan;

Key words

Look at history, all Constitutions of Uzbekistan, New Constitution, referendum, people's vote, development, "man-society-state", Our Prime Minister, the guarantor of freedom is the legal state;

Konstitutsiya - barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanib, u davlat tuzilishini, saylov tizimi, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, vakolati hamda ularnining shakllantirilish tartibi, jamiyat va davlat o’rtasidagi burch va majburiyatlarni, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Eng Yangi Konstitutsiyada aholining huquq va erkinliklarida misli ko'rinmagan holda o'zgarish yuzaga keldi. Konstitutsiyaning yangilanishi - bu O‘zbekiston fuqarolari va rahbarlarining taraqqiyotga, xalq tomonidan qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etishga intilayotganidan dalolat beradi. Biz maqolamizning mazmunini

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

O’zbekiston Konstitutsiyalarining qisqacha tarixi hamda eng Yangi Konstitutsiyasimiz haqidagi fikr va mulohazalar bilan boyitishni maqsad qildik.

Tarixga nazar soladigan bo’lsak, Buxoro amirligi va Xiva xonligi tugatilgandan so’ng 1924-yilda amirlik va xonlik hududini o’z ichiga olgan O’zbekiston Sovet Sotsiolistik Respublikasi tashkil etildi. O’zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 1927- yil 30- martda Butuno’zbek Sovetlari ikkinchi syezdida qabul qilingan. Poytaxti Samarqand shahrida bo’lgan va tarkibida Tojikiston ASSR ham kirgan O’zbekiston SSR “ishchilar va dehqonlarning sotsialistik davlati“ deb e’lon qilindi, bunda “butun hokimiyat ishchilar dehqonlar va Qizil Armiya deputatlari sovetlariga tegishli“ ekani belgilandi.[1] Bu Konstitutsiya O’zbekiston mamlakati tashkil etilgandan keyingi ilk Konstitutsiya hisoblanadi. Aynan bu Konstitutsiya davlat rahbarlarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan edi. Ayniqsa, Fayzulla Xo’jayevning hissasi katta bo’lgan. O’zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 10 yil davomida – 1937-yilgacha amal qildi. Bu davrda davlatning ichki ishlarida katta o’zgarishlar bo’ldi. Jumladan, alifboda o’zgarishlar amalga oshirildi, mamlakatda paxtachilikni rivojlantirish va irrigatsiya tizimini yo’lga qo’yish uchun besh yillik rejalarning 2 bosqichi amalga oshirildi, poytaxt avval Buxorodan Samarqandga, keyin esa Toshkentga ko’chirildi.

XX asrning yigirmanchi yillari ikkinchi yarmidan SSSRda I. Stalin o’z ta’sir doirasini kengaytirayotgan edi. 1936-yilda SSSRning “stalincha“ Konstitutsiyasi qabul qilingandan so’ng, O’zbekiston SSRning asosiy qonuni ham yangi tahrirda qabul qilindi. Xuddi avvalgi Konstitutsiyada bo’lgani kabi O’zSSR “ishchilar va dehqonlarning sotsiolistik davlati“ deb e’lon qilindi.[2] Bu Konstitutsiya qabul qilinishi aholiga nisbatan kengroq erkinliklar berilishiga olib keldi. Masalan, mehnat aholining majburiyati emas balki huquqi deb e’tirof etildi. Bundan tashqari ta’lim olish, qaringanda, nogironlik va kasallik chog’ida moddiy ta’minlanishi huquqlari qonunga kiritildi.

1978-yilda “stalincha“ Konstitutsiya “Brejnev” Konstitutsiyasi bilan almashtirildi. O’zbekiston “respublikadagi barcha millat va elatlar, ishchilar, dehqonlar va ziyolilarning irodasi va manfaatlarini ifodalovchi umumxalq sotsiolistik davlati“ deb e’lon qilindi.[3] Bu davrda Sharof Rashidov O’zbekistonning millatboshisi sifatida siyosiy maydonga chiqqan edi. Aynan Sharof Rashidov davrida O’zbekiston rivojlanish va taraqqiyotda ancha ildamladi. 1978-yildan 1992-yilgacha Konstitutsiyaga jiddiy o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi: o’zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi, president va vitse-prezident lavozimlari ta’sis etildi, Vazirlar Kengashi Vazirlar Mahkamasiga o’zgartirildi, Vazirlar Kengashi raisi lavozimi tugatilib, Vazirlar Mahkamasi raisining vazifalari prezidentga o’tkazildi.

O’zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g’oyasi 1990-yil 20-iyunda “Mustaqillik dekaratsiyasi” ning qabul qilinishi bilan bevosita bog’liq. Mazkur Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida bu hujjatdagi muhim tamoyillar asosida davlatning

[1] “Gazeta.uz” saytining “Konstitutsiya kuni” ga bag’ishlangan ilmiy maqolasi(maqola so’nggida havola berilgan).
[2] O’zME. Birinchi jild. Toshkent , 2000-yil (O’zbekiston milliy ensiklopediyasining 2000-2005- yillardagi ma’lumotlaridan foydalanildi).
[3] Orzudagi Konstitutsiya – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz

yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishi lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya Prezident I. A. Karimovning raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Uning tarkibidagi deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat tashkilotlarining, korxonalar, xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar va mutaxassislar kirdi. Oliy Kengashning o'ninchi sessiyasida Komissiya tarkibi qisman yangilandi.[4]

Mazkur topshiriqqa muvofiq , AQSH, Fransiya, Kanada, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Italiya, Portugaliya, Gretsiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston, Misr, Vengriya, Bolgariya, Litva davlatlarining Konstitutsiyalari chuqur o'rganildi, qiyosiy tahlil etildi. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi Rossiya Federatsiyasi, Belorus, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston respublikasining Asosiy qonunlari hamda Konstitutsiya loyihalari diqqat bilan ko'rib chiqildi.[5]

1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida"gi masala ko'rildi. Bu xususda Konstitutsiya komissiyasi Raisi, Prezident I.A.Karimov ma'ruza qildi: "O'zbekistonning asosiy qonuni , respublikada avvalgi yillarda qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq demokratik yo'llar bilan tayyorlangan bo'lib unda yillar davomida sinovdan o'tgan umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topganligi, u ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o'ziga singdirganligi alohida uqtirildi. Shuning uchun ham mazkur Konstitutsiya har qanday yetakchi Mamlakatning Konstitutsiyasi bilan baxslasha olishi mumkin"[6], — deb ta'kidlandi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Konstitusiyaviy komissiyasining raisi I. A. Karimov Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida Konstitutsiya loyihasi yuzasidan so'zlagan nutqida shunday ta'kidladi: "Hur O'zbekistonimizning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish- jumburiyatimizning yangidan tug'ilishidir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir… Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrar… Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda "fuqaro-jamiyat-davlat" o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik". [7]

O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillarni bilishimiz shart. Bular quyidagilar hisoblanadi:

— O'zbekiston Konstitutsiyasining birinchi tamoyili – davlat suverenitetidir.

— Ikkinchi tamoyil – xalq hokimiyatchiligidir.

[4] Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -Toshkent: 2013. 67- va 68- betlari
[5] Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -Toshkent: 2013. 69-bet
[6] Каримов И. Буюк келажагимизнинг ҳуқуқий кафолати. Тошкент., "Шарқ", 1993, 7-бет
[7] Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -Toshkent: 2013. 76-bet

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

— Uchinchi tamoyil - davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishidir. O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi qonunlashtirilgan.

— To'rtinchi tamoyil – bu demokratiyaga sodiqlik.

— Beshinchi tamoyil - Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligidir.

— Oltinchi tamoyil - xalqaro andozalar darajadida ifodalangan fuqarolar huquqlarni, erkinliklari va majburiyatlarining tengligi va daxlsizligidir.

Birinchi Prezidentimiz Oliy Kengashning XII chaqiriq 10-sessiyasida Konstitutsiyani “xalqchil qomus” deb atab, uning loyihasi ustida taxminan ikki yil davomida ishlanganligi, ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o‘tganligi va shu vaqt mobaynida u xalqning fikr xazinasi durdonalari bilan boyitilganini, sayqal topganini ta’kidladi.[8] Demak, bu davrda qabul qilingan Konstitutsiya ko’plab rivojlangan davlatlarning Asosiy qonunlarini balki, “Temur tuzuklar”ining ham ko’zdan kechirilib chiqilishi orqali yaratildi. 1992-yilda ishlab chiqilgan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 2023-yilgacha bir qancha o’zgartirishlar va qo’shimchalar kiritildi. Xususan, 1993-yil, 2002-yil, 2003-yil, 2007-yil, 2008-yil, 2011-yil ikki marotaba, 2014-yil, 2017-yil 2018-yil, 2019-yil ikki marotaba, 2021-yillarda jami 15 marta Konstitutsiyamizda katta va kichik o’zgartirishlar amalga oshirildi. Bu o’zgartirishlarning aksariyati davlat boshqaruvi sohasiga oid o’zgarishlarni tashkil etar edi. Ko’rinib turganidek keyingi navbat haqiqiy taraqqiyotga asoslanishi kerak edi va bu holat “Harakatlar strategiyasi” amalga oshirilgandan so’ng yanada oydinlashdi.

2023-yilning 30-aprel kuni xalqimizning hayotida o’ziga xos voqelikka ega bo’lgan kun sifatida tarixga muhrlandi. Sababi, ko’p millatli xalqimiz ko’nglidagi o’zgarish va islohotlarga zamin yaratib berishi bilan ahamiyatli bo’lgan yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Ko’p ovoz yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani unda xalqimizning Yangi O’zbekistonni barpo etish bo’yicha orzu-umidlari va intilishlari o’z aksini topganidan dalolat bermoqda.[9] Aholining davlatga murojaati juda tezlik bilan yetkazilishi ta’minlandi. Buni biz Davlat xizmatlari portalining yaratilganligi orqali isbotlashimiz mumkin. Bundan tashqari turli xildagi ma’lumotlar va hujjatlarni masofadan turib hech qanday ovoragarchiliklarsiz qabul qilish va ularni uzatish imkoniyatlariga ega bo’ldilar. Aynan shu kabi o’zgarishlar davlatimizning qonunchilik tizimi tubdan o’zgarayotganligidan dalolat beradi. Internet va ma’lumot xavfsizligining ta’minlanishi(O’z. Res. Yangi Konstitutsiyasi 31-modda) va mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onalariga g’amxo’rlik qilishlari to’g’risida(O’z. Res. Yangi Konstitutsiyasi 80-modda)gi yangi qonunlarning qabul qilinishi Yangi O’zbekistonning globallashuv jarayonida ishtirok etishi bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizni ham qonunchilik yo’li bilan asrab-avaylaydi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: — ”Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim”. Shu jumladan yangi

[8] Konstitusiyamizning yaratilishi tarixi (constitution.uz)
[9] Yangi O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi xalqimiz muallifligida yaratildi (uza.uz)

tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning keyingi kelajagi va qurilayotgan Uchinchi renessans yo'lida qo'yilgan navbatdagi katta qadamlardan biri hisoblanadi. Xususan ushbu yangi tahrirdagi Konstitutsiya nazdida ijtimoiy sohada shaffovlikni ta'minlash, qabul qilinayotgan qarorlarda xalqimizning barcha qatlamlarini hisobga olgan holda adolatli hukmni ta'minlash asosiy dastur ul-amal qilib olingan. Albatta huquq sohasida olib borilayotgan bunday o'zgarishlar ortidan xalqimizning barcha sohalardagi adolatli siyosat asosida qurilayotgan ertangi hayotga bo'lgan ishonchi yana bir necha barobar oshishiga zamin yaratadi. Shuni ta'kidlash joizki, hayotning barcha jabhalari huquqiy asosda kafolatlanishi va ularning barcha qismida adolatli siyosatning ko'zga ta'shlanishi shundan dalolat beradiki, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya erkin va farovon davlat qurish yo'lidagi eng to'g'ri yo'l ekanligi yana bir karra o'z tasdig'ini topdi.

Yangi konstitutsiya 1992-yilgi Asosiy qonunning jadal qayta yozilgan va kengaytirilgan variantidir. Kiritilgan o'zgarishlar davlatning jamiyat oldidagi ijtimoiy imtiyozlar va fuqarolar erkinliklarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlarini tubdan oshirib, boshqa chora-tadbirlar qatorida o'zini o'zi boshqarish organlarining rivojlanishiga keng yo'l ochdi.[10] O'zgartirishlar asosan turli ijtimoiy qatlam fuqarolarining shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik huquq va manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish normalariga taalluqlidir. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlari ya'ni uy-joy kafolatlari, maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim bosqichlarida bepul ta'lim olish, eng kam ish haqi miqdorida pensiya ta'minoti, davlat sog'liqni saqlash va shu kabi ijtimoiy erkinliklar mustahkamlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z navbatida rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan demokratik davlatda xalq va davlat o'rtasidagi ishonch ko'prigini mustahkamlashga bevosita hissa qo'shadi. Bundan tashqari yangi Konstitutsiyada davlatning moliyaviy savodxonligi ya'ni pul va bank tizimiga oid alohida bob qo'shilganligi davlatning moliyaviy ahvolini yana bir pog'ona yuqorilashiga olib keladi. Bunga misol tariqasida bir necha moddalarni keltirishimiz mumkin. Masalan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 147- moddasida keltirilganidek "O'zbekiston Respublikasi o'zining yagona moliya, pul va bank tizimiga ega". Bundan tashqari avvalgi Konstitutsiyada mavjud bo'lmagan ekologik muammolarni hal qilish uchun hukumat ma'suliyati bir necha bor ta'kidlangan. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning amalga oshirgan islohotlarining ramziy isboti va uning siyosatidagi barqarorlikning yaqqol tasdig'idir.

Davlatimiz rahbari yangilangan Konstitutsiyamiz "Xalq – qonunlarining yagona manbai va muallifidir" hamda "Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida va jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi", degan tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilsagina tom ma'noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi - haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo'lishini alohida ta'kidlagan edi. Shu bois, hech kim ikkilanmasdan aytishi mumkinki, Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi xalqimiz muallifligida yaratildi.[11]

Foydalanilgan adabiyotlar

[10] A constitution for "the New Uzbekistan" | OSW Centre for Eastern Studies

[11] Yangi O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi xalqimiz muallifligida yaratildi (uza.uz)

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. -Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti. - Qayta nashr. - Toshkent: G'afur G'ulom nomudagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. Xoliqova R. F. O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: 2021.
4. Каримов И. Буюк келажагимизнинг ҳуқуқий кафолати. Тошкент., "Шарқ", 1993,
5. Н. Жўраев, Т. Файзуллаев. Ўзбекистоннинг янги тарихи. - Тошкент, "Шарқ". 2000.

Internet manbalari

6. Orzudagi Konstitutsiya – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz
7. A constitution for “the New Uzbekistan” | OSW Centre for Eastern Studies
8. 'Uzbekistan on the Eve of the Referendum on the Constitution' - Indian Council of World Affairs (Government of India) (icwa.in)

WORDLY
KNOWLEDGE